

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
tomonidan jismoniy shaxslar-rezidentlarga
naqd xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasi
hududidan tashqariga olib chiqishga ruxsatnomalar
berish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizomga AV 14.12.2017 y. 2678-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

1-ilova. O'zbekiston Respublikasi hududidan naqd xorijiy valyutani olib chiqishga ruxsatnoma berish haqida ariza

2-ilova. Naqd xorijiy valyutani xorijga olib chiqishga ruxsatnoma

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 yanvardagi PQ-1914-sonli "Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq jismoniy shaxslar-rezidentlarga 5000 AQSh dollari ekvivalenti miqdoridan oshgan naqd xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqishga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) ruxsatnoma berish tartibini belgilaydi. (AV 14.12.2017 y. 2678-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi muqaddima) (Oldingi tahririga qarang)

1. Jismoniy shaxslar-rezidentlar tomonidan 5000 AQSh dollari ekvivalenti miqdoridan oshgan naqd xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqish uchun Markaziy bankning ruxsatnomasi (bundan buyon matnda ruxsatnoma deb yuritiladi) olinishi shart.

2. Jismoniy shaxslar-rezidentlarga ruxsatnomalar quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi farmoyishlari asosida hukumat delegatsiyalari tarkibida xorijiy davlatlarga chiqish uchun;
- b) xorijiy davlatlarda doimiy yashash maqsadida xorijiy davlatlarga chiqish uchun;
- v) xizmat safari yuzasidan xorijiy davlatlarga chiqish uchun;
- g) ta'lim olish maqsadida xorijiy davlatlarga chiqish uchun;
- d) boshqa maqsadlar uchun (sayyohlik safarlari, davolanish, qarindoshlarni ko'rib kelish, sport musobaqalari va h.k.).

3. Jismoniy shaxslar-rezidentlar ruxsatnoma olish uchun Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- a) mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza; (AV 14.12.2017 y. 2678-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi kichik band)
- b) quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda pasport nusxasi:
 - pasport seriyasi, raqami va berilgan sanasi;
 - pasport bergan organ nomi;
 - O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish huquqini beruvchi ruxsatnoma belgisi (agar talab qilinsa);
 - xorijiy davlatga chiqish vizasi (agar viza rejimi belgilangan bo'lsa);
 - O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi belgi;
- v) O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish huquqini beruvchi ruxsatnoma nusxasi (agar talab qilinsa);
- g) naqd xorijiy valyutaning kelib chiqish manbasini tasdiqlaydigan hujjatlarning asl nusxalari ko'rsatilgan holda ularning nusxalari (vakolatli bankning hisobvaraqlar va omonatlardagi xorijiy valyuta olinganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlar);
- d) xizmat safariga yuborilayotgan shaxslar uchun - xorijga xizmat safariga yuborish to'g'risidagi buyruqning, taklif etayotgan taraf xatlarining nusxasi;
- ye) hukumat delegatsiyalari tarkibida xorijga borayotgan shaxslar uchun - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi farmoyishining nusxasi;
- j) xorijga chiqish maqsadini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar - agar mavjud bo'lsa.

4. Jismoniy shaxslar-rezidentlarning arizalarini ko'rib chiqish va ularga ruxsatnomalarni berish yoki ruxsatnomalar berishni rad etish ariza kelib tushgan sanadan boshlab o'n kundan kechiktirmasdan amalga oshiriladi.

5. Markaziy bank tomonidan ruxsatnomalar berishda:

- a) jismoniy shaxslar-rezidentlar mazkur Nizomning 2-bandida ko'rsatilgan maqsadlarda chet elga chiqayotganligi;
- b) jismoniy shaxslar-rezidentlar tomonidan mazkur Nizomning 3-bandida ko'rsatilgan hujjatlar tegishlilik bo'yicha to'liq taqdim etilganligi asos bo'ladi.

6. Jismoniy shaxs-rezident tomonidan mazkur Nizomning 5-bandida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinmagan taqdirda Markaziy bank ruxsatnoma berishni rad etadi va bu haqda jismoniy shaxs-rezidentga yozma ravishda javob beradi.

7. Taqdim etilgan hujjatlar mazkur Nizom talablariga muvofiq bo'lganda, Markaziy bank tomonidan ushbu Nizomning 2-ilovasida keltirilgan 09006-1 shakl bo'yicha ruxsatnoma rasmiylashtiriladi. (AV 14.12.2017 y. 2678-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

Ruxsatnoma Markaziy bank raisining valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

8. Ruxsatnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi, birinchi nusxasi jismoniy shaxs-rezidentga beriladi, ikkinchi nusxasi Markaziy bankda qoldiriladi.

9. Ruxsatnoma jismoniy shaxslar-rezidentlar tomonidan bojxona organlariga topshirilishi shart.

10. Ruxsatnoma berilgan sanadan boshlab uch oy davomida haqiqiy hisoblanadi.

11. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

AV 14.12.2017 y. 2678-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori
tahriridagi ilova (Oldingi tahririga qarang)

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy Bankiga

ARIZA

Men _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

(pasport seriyasi, raqami, berilgan sanasi va uni bergan organning nomi)

_____ ga chiqishim munosabati bilan
(davlat nomi, shahar)

(xorijiy valyuta turi, miqdori (raqam va so'z bilan))

miqdordagi naqd xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishga
ruxsat berishingizni so'rayman.

Xorijiy davlatga chiqishdan maqsad (asos) _____

Ketish sanasi: 20__ yil "____" _____.

Kelish sanasi: 20__ yil "____" _____.

F.I.O. _____
(imzo)

AV 14.12.2017 y. 2678-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga
muvofiq kiritilgan ilova

Bankning emblemasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

_____ -sonli RUXSATNOMA

20__ yil " __ " _____

Xorijga jo`nab ketayotgan _____ ga
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

ushbu hujjat bo`yicha xorijga chiqish ruxsati bo`lgan pasporti _____

(seriyasi, nomeri)

_____ ko`rsatilganda
(berilgan vaqti, kim tomonidan berilgan)

(summasi raqam va so`z bilan yozilsin)

(xorijiy valyutaning to`liq nomi)

miqdoridagi naqd xorijiy valyutani xorijga olib chiqishga ruxsat etiladi.

Ushbu ruxsatnoma bojxonaga topshirilishi shart.

O`zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisining
o`rinbosari

(imzo)

M.O`.

QALBAKILASNTIRISN QONUNGA
MUVOFIQ TAQIB QILINADI
TUZATISN KIRITISN MUMKIN EMAS

BOSNQA SNAXSLARGA BERISN
TAQIQLANADI
UCN OY DAVOMIDA HAQIQIYDIR".